



Kichik biznes subektlarini xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan kreditlashni takomillashtirish yo'llari

Boltayev Telmon Ibragimovich

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Kalit so'zi: kichik biznes, bozor infratuzilmasi, imtiyozli kreditlar, xalqaro moliya, tadbirkorlik sub'ektlari, milliy valyutada hisobvaraq ochgani garov ta'minotini rasmiylashtirish.

Barchamizga ma'lumki, kichik biznes subyektlariga mustaqillik berish, ular faoliyatining yakuniy natijalari uchun javobgarlik hissini oshiradi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biribo'lib hisoblanadi. Shu jumladan, hozirgi kunda tijorat banklarining ham oldiga quyilgan eng asosiy vazifalardan biri - kichik biznes sohasini yetarlicha moliyaviy resurslar va xizmatlar bilan ta'minlashdan iboratdir. Kichik biznes aholi zich joylashgan hududlarda ishsizlik muammosini hal qiladi. Shu sababli, bank tizimida kreditlash mexanizmini takomillashtirish buyicha chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Iqtisodiy manbalarda ko'rsatilishicha, hozirgi kunga qadar mamlakatimizda davlatning kichik biznesni qo'llab-quvvatlashi asosan quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirib kelindi:

- mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi uchun lozim bo'lgan huquqiy-me'yoriy asos yaratildi;



- kichik biznesning rivojlanishida ustuvorliklar belgilandi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning Dasturi ishlab chiqildi va joriy etilmoqda;
- kichik biznesning rivojlanishiga yordam beruvchi bozor infratuzilmasiga asos solindi;
- imtiyozli soliq, subsidiyalar, davlat va byudjetdan tashqari fondlardan beriladigan imtiyozli kreditlar, xalqaro moliya institutlari kreditlarini jalb etish kichik biznes rivojlanishini ragb'atlantiradi;
- huquqiy va jismoniy shaxslarga xorijiy va milliy valyutada mikrokredit berish mexanizmi ishlab chiqildi va joriy etilmoqda. Respublikamiz Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid qo'shimcha chora -tadbirlar to'g'risida" 2011-yil 11-martda imzolangan PQ-1501-sonli Qarori, "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2011-yil 24-avgustda chiqarilgan PF-4354-sonli Farmoni va boshqa bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun turli imtiyoz va qulayliklar berildi, imtiyozli kreditlash tizimi soddalashtirildi. Shu jumladan: kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining kreditlar ajratish haqidagi arizalarini ko'rib chiqish muddati uch bank ish kunidan oshmaydigan muddat qilib belgilandi;
- kichik biznes sub'ektlaridan tijorat banklarida milliy valyutada hisobvaraqlar ochgani uchun to'lov undirish bekor qilindi;
- tijorat banklariga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit berishda kreditning umumiy summasida qarz oluvchining garov ta'minotini rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olish huquqi berildi;
- imtiyozli kreditlash hajmini kengaytirishni rag'batlantirish maqsadida tijorat banklarining Imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi mablag'lari hisobidan kreditlar ajratishdan oladigan daromadlari 2022-yilning 1-yanvariga qadar foyda solig'idan ozod qilindi.



Shuningdek, kichik biznesni moliyalashtirishda banklarning rolini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Xususan, o'tgan yilda Respublika Markaziy banki tomonidan Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati bilan hamkorlikda "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik taraqqiyotida bank tizimining roli" mavzusiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya bo'lib o'tdi. Mazkur konferentsiyada asosiy e'tibor mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bank-moliya sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llabquvvatlashda bank-moliya tizimi ishtirokini yanada oshirish, ushbu soha vakillariga ko'mak berish bo'yicha jahonning ilg'or tajribalarini unumli foydalanish, taklif etilayotgan yangi bank-moliya xizmatlari, shuningdek kreditlar ajratish mexanizmlarini yanada takomillashtirish yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratildi. Ushbu konferentsiyada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini rivojlantirishda bank xizmatlarning alohida or'ni, soha sub'ektlariga ko'rsatilayotgan bank-moliya xizmatlari ko'lami va sifatini oshirish, bu borada xorijning ilg'or tajribalari, soha sub'ektlarining investitsion loyihalarini moliyalashtirishda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik masalalari xususida batafsil fikr -mulohazalar almashinildi. Mazkur koferensiyada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda bankmoliya tizimining rolini yanada oshirish istiqbollari, soha sub'ektlariga kreditlar ajratishda kredit ta'minoti masalasini hal etish, jumladan kafolatlash fondlarining roli, guruhli kreditlash mexanizmlarini joriy qilish hamda xorijiy kredit liniyalari hisobidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llabquvvatlashni takomillashtirish masalalarining ilmiy va amaliy jihatlari yoritib berildi. Shuningdek, anjumanda kichik biznes sub'ektlarining investitsion loyihalarini moliyalashtirish maqsadida xalqaro moliya institutlarining uzoq muddatli imtiyozli kredit liniyalarini jalb etish borasidagi hamkorlikning ahamiyatiga to'xtalib o'tildi. Shu o'rinda shuni aytish o'rinliki, bugungi kunda mamlakatimiz banklari tomonidan bir qator xalqaro moliya institutlari, jumladan Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Xitoy taraqqiyot banki, Koreya eksimbanki, Germaniyaning



bir qator banklarining kredit liniyalari jalb etilib, ushbu mablag'lar kichik biznes sub'ektlarining loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda

Foydalangan adabiyotlar

1. Bazarova, M. "EFFECTIVENESS OF USING PR-ADVERTISING SERVICES IN THE PROCESS OF PRODUCT DELIVERY ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION". *Modern Science and Research*, vol. 2, no. 10, Nov. 2023, pp. 798-04,
2. Supievnna, Bazarova Mamlakat, and Sakhibova Firuza. "STRATEGIC WAYS OF IMPLEMENTING PERSONNEL POLICY IN COMMERCIAL BANKS." *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY* 1.7 (2023): 22-25.
3. Supievnna, Bazarova Mamlakat. "USING EFFECTIVE WAYS OF CONDUCTING MARKETING RESEARCH IN INTERNATIONAL COMPANIES." *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities* 11.6 (2023): 624-629.